

**AVTOMOBIL TIRBANDLIGINI KAMAYTIRISHDAGI JAMOAT
TRANSPORTINING O'RNI**

Andijon mashinasozlik instituti bakalavr talabasi

Radjabov Muhammadjon Ilhom o'g'li

Tel: +998931412411

@email: miradjabov777@gmail.com

Ergashev Nurillo Xusanboy o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti bakalavr talabasi

Tel: +998942331070

@email: ergashevnurullo01@gmail.com

Andijon mashinasozlik institute-bakalavr talabasi

Xoshimov O'tkirjon Xakimjon o'g'li

Tel: +998889571904

@email: hoshimovotkirkbek133@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamoat transportining tirbandlikni kamaytirishdagi roli, uning afzalliklari va samaradorligi tahlil qilinadi. Jamoat transporti, avtomobilarning o'rnini qoplash orqali, shahar yo'llaridagi yuklamani kamaytiradi va shaharlarni yanada tez va samarali boshqarishga yordam beradi. Tadqiqotda jamoat transportining takomillashtirilishi, unga bo'lgan talabning oshishi va transport tizimining optimallashtirilishi orqali tirbandlikni kamaytirishning imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Jamoat transporti, tirbandlik, avtomobil, muammolar, yechimlar, transport.

Kirish: Bugungi kunda avtotransport vositalari jamiyat uchun katta rol oynaydi. So'nggi yillarda aholiga avtotransport xizmati korsatishni yaxshilash, jamoat transporti yonalishlari tarmogini kengaytirish va harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar bilan yangilash boyicha keng kolamli ishlar amalga oshirilishi yuzasidan Ozbekiston respublikasi prezidentining 16.02.2023-yil PQ-59-sonli qaroriga muvofiq Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora tadbirlari togrisidagi qarori qabul qilindi. Jamoat transporti tizimining yaxshilanishi nafaqat shahar infratuzilmasini optimallashtirishga, balki ekologik jihatdan toza va tejamkor transport tizimini yaratishga ham yordam beradi. Shu bilan birga, jamoat transportining ko'proq rivojlanishi, aholining avtomobilga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishga, shaharlar orasidagi tirbandlikni pasaytirishga xizmat qiladi.

Jamoat transportining samarali ishlashi va rivojlanishi, shaharlar va yo'llardagi tirbandlikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Agar jamoat transporti tizimi sifatli,

qulay va oson foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa, odamlar avtomobillarini kamroq ishlatib, jamoat transportini tanlashadi. Bu esa avtomobil harakati sonining kamayishiga olib keladi. Jamoat transportining yaxshi tashkil etilishi, albatta, shahar ichidagi va tashqarisidagi tirbandlikni sezilarli darajada kamaytiradi. Qayd etilishicha, tirbandliklar jahondagi aksariyat yirik shaharlar uchun katta muammoga aylanib ulgurgan. Inrix ma'lumotlariga ko'ra, tirbandlik tufayli Londonda bitta haydovchi yiliga o'rtacha 156 soat, Chikagoda 155 soat, Parijda 138 soat ortiqcha vaqt sarflaydi. tarixda yuz bergen eng yirik tirbandlik xitoyda bo'loan. 2010 yil 14 avgust kuni Pekindan Tibetga olib boruvchi magistral yo'lda 260 kilometrga cho'zilgan ulkan tirbandlik kuzatiladi. Oqibatda millionlab odamlar ikki hafta yo'lda qolib ketishadi.

Tirbandlik Toshkentda ham jiddiy muammo bo'lmoqda. Tadqiqot davomida poytaxt aholisining tirbandlikka munosabati va uni kamaytirish bo'yicha takliflarini o'rghanish maqsadida ijtimoiy so'rov tashkil etildi. So'rov natijalariga ko'ra, avtomobil boshqarmasligini ta'kidlagan ishtirokchilarining 41,8 foizi avtobus, 27,5 foizi metro, 24,1 foizi taksi, 1,7 foizi mikroavtobus xizmatidan foydalanishini va 4,9 foizi piyoda yurishini bildirgan. Jamoat transportidan ko'proq ayollar (33,1 foiz) va yoshlar (36,5 foiz), shaxsiy transportdan erkaklar (33,1 foiz) foydalanishi ma'lum bo'ldi. So'rovda qatnashganlar quyidagilarni tirbandlikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar sifatida qayd etgan:

- 62,2 foizi tartibsiz haydovchilar, qoidabuzarliklar, noto'g'ri parkovka;
- 57,6 foizi yo'llardagi nosozliklar;
- 46,8 foizi o'qishga qatnovchilar;
- 41,2 foizi ishga qatnovchilar.

So'rov ishtirokchilarining 41,8 foizi tirbandlik tufayli yo'l uchun ko'proq vaqt rejalashtirishini, 39,1 foizi tirbandlik yo'q yo'llardan yurishini, 16,9 foizi tirbandlik kamayishini kutishini aytgan.

Yechimlari: Jamoat transportining samaradorligini oshirish: Jamoat transportining tezligi, qulayligi va ishonchliligi yuqori bo'lishi kerak. Bu, o'z navbatida, odamlarni avtomobildan voz kechishga undaydi.

Alovida yo'laklar va yo'llar yaratish: Jamoat transportining o'z yo'laklarida harakatlanishi (masalan, avtobus yo'laklari, metro tizimi) transport tizimining tezligini oshiradi va avtomobillar sonini kamaytiradi.

Jamoat transportining arzon va qulay bo'lishi: Jamoat transportining narxini arzon qilish va uni kengroq tarmoqda ishlatish, odamlarni avtomobil o'rniga jamoat transportidan foydalanishga undaydi. Yaxshi tarif tizimi va alovida chegirmalar tizimi ko'proq odamlarni jamoat transportiga jalb qiladi.

Bu yechimlarga misol sifatida Singapur shahrida Elektron to'lov tizimlari (ERP) joriy etilgan. Bu tizim shahar markaziga kirish va harakat qilishni boshqaradi. Avtomobil

egalaridan yo‘l harakati zonalarida kirish uchun to‘lov olinadi, bu esa avtomobilarning harakatini cheklaydi va odamlarni jamoat transportidan foydalanishga undaydi

Tirbandliklarni bartaraf etishda avtobus transportidan foydalanish bo‘yicha xalqaro tajribalar quyidagi yo‘nalishlarda muvaffaqiyatli amaliyotlarni ko‘rsatadi:

1. BRT (Bus Rapid Transit) tizimi. BRT (tezkor avtobus transporti) tizimlari tirbandliklarni kamaytirishda juda samarali hisoblanadi. Ularning asosiy jihat maxsus avtobus yo‘laklari va tezkor xizmat ko‘rsatishdan iborat.

Muvaffaqiyatli misollar: Bogota (Kolumbiya): TransMilenio. Maxsus avtobus yo‘llari bilan BRT tizimi joriy etilgan. Yillik yo‘lovchilar oqimi sezilarli darajada oshdi va tirbandliklar kamaydi. Kuritiba (Braziliya): BRT pioneri. BRT tizimi yuqori sig‘imli avtobuslar va tezkor bekatlar bilan jihozlangan. Uskunalar va xizmat ko‘rsatish sohasida arzon yechim sifatida mashhur.

2. Elektrifikatsiya va yashil avtobuslar.

Ekologik toza avtobuslardan foydalanish nafaqat tirbandliklarni, balki havoning ifloslanishini kamaytiradi.

Muvaffaqiyatli misollar:

Shenzhen (Xitoy)da Dunyodagi birinchi to‘liq elektrlashtirilgan avtobus parki joriy qilingan. Elektr avtobuslar yo‘nalishidagi yo‘lovchilar oqimi ancha yaxshilandi. Stokholm (Shvetsiya)da Gibrid va elektr avtobuslar tizimi joriy etilib, tirbandlik va CO₂ chiqindilar kamaytirildi.

3. Avtobusga mo‘ljallangan maxsus yo‘laklar.

Avtobuslar uchun maxsus yo‘laklarning tashkil etilishi jamoat transporti xizmatlarini tezroq va samaraliroq qiladi.

Muvaffaqiyatli misollar: London (Buyuk Britaniya)da "Red Routes" deb ataladigan yo‘llarda avtobuslar uchun maxsus yo‘laklar mavjud. Parij (Fransiya)da Ko‘cha chetlarida faqat avtobuslar va velosipedlar uchun yo‘llar ajratilgan.

4. Avtobus to‘lov tizimlarini raqamlashtirish.

Raqamli chiptalar va avtomatlashtirilgan to‘lov tizimlari yo‘lovchilarga qulaylik yaratadi va avtobus xizmatlarining samaradorligini oshiradi.

Muvaffaqiyatli misollar: Tallin (Estoniya)da Shahar transporti bepul va to‘liq raqamlashtirilgan to‘lov tizimlari bilan boshqariladi. Tokio (Yaponiya) NFC texnologiyalari asosidagi tezkor transport kartalari joriy etilgan.

5. Integratsiyalashgan transport tizimlari.

Avtobuslarning boshqa transport turlari bilan bog‘langan tizimi yo‘lovchilar oqimini boshqarishga yordam beradi.

Muvaffaqiyatli misollar: Seul (Janubiy Koreya)da Avtobus va metro tizimi yagona chipta tizimi orqali bog‘langan. Berlin (Germaniya)da Avtobuslar tramvay va metro tizimi bilan mukammal bog‘liq.

Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, avtobus transporti jamoat transporti tizimining muhim qismi bo'lib, raqamlashtirish, ekologik yechimlar va integratsiyalashgan tizimlar orqali tirbandliklarni bartaraf etishda muhim rol o'yaydi.

Xulosa: Jamoat transportining samarali ishlashini ta'minlash, shaharlar uchun nafaqat tirbandlikni kamaytirishga, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham katta hissa qo'shami. Shuningdek, ekologik toza transport vositalarini joriy etish va aqlii transport tizimlarini ishlab chiqish orqali shaharlar nafaqat tirbandlikni bartaraf etadi, balki atrof-muhitni himoya qiladi. Har bir shahar o'zining shart-sharoitlariga mos ravishda jamoat transportini takomillashtirish va innovatsion yechimlarni qo'llash orqali avtomobil tirbandligini kamaytirishi mumkin.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 11 мартағи “Тошкент шаҳрида йўловчи ташиш транспортини янада ривожлантириш чоратадбирлари тўгрисида”ги ПҚ-129-сонли Қарори.
2. Radnovich B., Marich R., Radnovich V., Ilich M., Lukach D. Marketing Research on Passenger Satisfaction With Public Transport Service in the City of Belgrade. Traffic and Transportation. 2015. 47p.
3. Doniyalova A., Masek J., Kendra M. Research of the Passenger's Preferences and Requirements for the Travel Companion Application. Journal of Advanced Transportation. 2018.
4. [phttps://stat.uz/uz/](https://stat.uz/uz/)
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/10/tashkent/>
6. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/jamoat_transporti_bosqichma-bosqich_brutto-shartnomaga_utkaziladi
7. <https://kun.uz/news/2023/10/24/avtomobillar-bilan-tolib-toshgan-yer-kurrasitarıxdagi-eng-yirik-tirbandliklar-qayerda-sodir-bolgan>